



Normatov Azamatbek Abduxalilovich

Andijon davlat chet tillari instituti
Fransuz tili nazariyasi va amaliyoti
kafedrası o‘qituvchisi
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)

Fransuz tilida sifat intensivligini ifodalovchi frazeologik va reduplikativ birliklarning semantik-pragmatik tadqiqi

May

2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada fransuz tilida sifat intensivligini ifodalovchi frazeologik birliklar hamda leksik takrorlarning semantik-struktur xususiyatlari tadqiq etiladi. Xususan, *sifat + comme + ot* modeli asosida shakllangan frazeologik qiyoslashlar va reduplikatsiya hodisasining intensifikatsion imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ushbu birliklarning tarixiy taraqqiyoti, semantik qayta ma‘nolanishi, emotsional-ekspressiv funksiyasi hamda zamonaviy badiiy matndagi qo‘llanish xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, intensifikatsiya, reduplikatsiya, frazeologik qiyoslash, sifat intensivligi, semantik transformatsiya, ekspressivlik, fransuz tili.

May

2026

Abstract: This article investigates the semantic and structural properties of phraseological units and lexical reduplication expressing adjective intensification in the French language. In particular, it analyzes comparative phraseological constructions based on the *adjective + comme + noun* model and the intensifying functions of reduplication. The study highlights historical development, semantic resemanticization, emotional-expressive functions, and usage in modern literary discourse. It is demonstrated that in phraseological comparisons, the referential meaning of the comparative element gradually weakens and transforms into an intensifying semantic function. Moreover, reduplication is substantiated as one of the oldest grammatical means of expressing high degrees of adjectives in French.

Keywords: phraseology, intensification, reduplication, comparative constructions, adjective intensity, semantic transformation, expressiveness, French language.

Kirish. Tilshunoslikda intensivlik kategoriyasi semantik va funksional jihatdan murakkab hamda ko‘p qatlamli hodisalardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Intensivlik tushunchasi til birliklari orqali voqelikdagi belgi, sifat, holat yoki harakatning me‘yoriy darajadan yuqori yoki past ifodalanishini anglatadi. Boshqacha aytganda, intensivlik ma‘lum bir predmet yoki hodisaning oddiy holatga nisbatan kuchliroq, ta‘sirchanroq yoki sustroq tarzda namoyon bo‘lishini ifodalovchi semantik kategoriya hisoblanadi. Ushbu hodisa inson tafakkuridagi subyektiv baholash, hissiy munosabat va emotsional qabul qilish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, nutqning pragmatik va ekspressiv xususiyatlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli intensivlik kategoriyasi zamonaviy semantika, pragmalingsvistika, stilistika hamda frazeologiya yo‘nalishlarida faol o‘rganilayotgan lingvistik masalalardan biri sanaladi.

Til tizimida intensivlik turli vositalar yordamida ifodalanadi. Ular orasida leksik vositalar (*très, extrêmement, absolument* kabi ravishlar), grammatik shakllar, sintaktik konstruksiyalar, fonetik urg‘ular hamda frazeologik birliklar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, fransuz tilida sifat intensivligini ifodalashning usullari nihoyatda boy va rang-barangligi bilan ajralib turadi. Fransuz tilining stilistik imkoniyatlari yuqori darajada rivojlanganligi sababli unda sifatning kuchaytirilgan ma‘nosini ifodalovchi ko‘plab obrazli va emotsional birliklar shakllangan. Bu birliklar nafaqat ma‘lumot yetkazish, balki tinglovchi yoki kitobxonga estetik va hissiy ta‘sir ko‘rsatish vazifasini ham bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Fransuz tilida intensivlikni ifodalovchi vositalar orasida frazeologik birliklar muhim o‘rin egallaydi. Xususan, *sifat + comme + ot* modeli asosida shakllangan frazeologik qiyoslashlar tilning eng faol intensifikatsion vositalaridan biri hisoblanadi. Masalan, *fort comme un bœuf, clair comme le jour, beau comme un ange* kabi birikmalar oddiy sifat ma‘nosini kuchaytirib, nutqqa obrazlilik va ekspressivlik bag‘ishlaydi. Ushbu konstruksiyalarda qiyoslash etaloni sifatida kelayotgan ot komponenti o‘zining dastlabki predmetlik ma‘nosini qisman yoki to‘liq yo‘qotib, kuchaytiruvchi semantik funksiyani bajaradi. Natijada butun konstruksiya sifatning haddan tashqari yuqori darajasini ifodalovchi turg‘un frazeologik birlikka aylanadi. Frazeologik intensifikatsiya jarayonida metaforizatsiya, semantik transformatsiya va desemantizatsiya kabi hodisalar muhim ahamiyatga ega. Chunki qiyoslash etaloni sifatida tanlangan obraz ko‘pincha xalqning milliy-madaniy tajribasi, stereotiplari hamda assotsiativ tafakkuri bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu bois frazeologik birliklar nafaqat lingvistik, balki lingvomadaniy ahamiyatga ham ega hisoblanadi.

Bundan tashqari, fransuz tilida reduplikativ konstruksiyalar, ya‘ni leksik takrorlar ham sifat intensivligini ifodalashning qadimiy va samarali vositalaridan biri sifatida qo‘llanadi. Reduplikatsiya bir xil leksik birlikning ikki yoki undan ortiq marotaba takrorlanishi orqali yuzaga keladi: *joli, joli, grand-grand, très, très beau* kabi shakllar bunga misol bo‘la oladi. Bunday takrorlar nutqda emotsional urg‘uni kuchaytiradi, semantik ta‘sirchanlikni oshiradi va so‘zlovchining subyektiv bahosini yanada yorqinroq ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa, og‘zaki nutqda reduplikatsiya ekspressivlikni kuchaytiruvchi stilistik vosita sifatida faol qo‘llanadi. Demak, fransuz tilida sifat intensivligini ifodalash vositalari tilning semantik va pragmatik boyligini namoyon etadi. Frazeologik birliklar hamda reduplikativ konstruksiyalar esa ushbu tizimning eng obrazli va emotsional qatlamini tashkil qilib, nutqning ta‘sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Frazeologik qiyoslashlar tilning emotsional-ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiruvchi vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ular nafaqat sifatning yuqori darajasini ifodalaydi, balki nutqqa obrazlilik va stilistik ta‘sirchanlik ham bag‘ishlaydi. Zamonaviy fransuz tilida keng

qo‘llanadigan *clair comme le jour, fort comme un bœuf, vieux comme le monde* kabi konstruksiyalar tarixiy taraqqiyot natijasida barqaror frazeologik birliklarga aylangan [1, 58]. Fransuz tilida sifat intensivligini ifodalovchi eng mahsuldor modellardan biri *sifat + comme + ot* strukturasida shakllangan frazeologik qiyoslashlardir. Ushbu model qadimgi fransuz tilidayoq qiyoslovchi-taqqoslovchi ma‘noda faol qo‘llanilgan bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan frazeologiklashuv jarayoniga uchragan [2, 94].

Masalan:

clair comme le jour;
malade comme un chien;
bête comme un âne;
rapide comme le vent;
beau comme un ange.

Mazkur konstruksiyalarda qiyoslashning ikkinchi komponenti sifatning semantik intensifikatoriga aylanadi. Dastlab predmetni ifodalagan ot asta-sekin o‘zining denotativ ma‘nosini yo‘qotib, kuchaytiruvchi semaga ega bo‘ladi. Natijada konstruksiya umumiy holda “nihoyatda”, “juda”, “o‘ta” kabi ma‘nolarni anglatadi [3, 117].

Asosiy qism. Tilshunoslarning qayd etishicha, frazeologik qiyoslashlarning asosiy belgilaridan biri ularning semantik yaxlitligidir. Ya‘ni, birlik tarkibidagi komponentlarning ma‘nosi alohida emas, balki butun konstruksiya doirasida idrok qilinadi [4, 76]. Masalan, *fort comme un bœuf* birikmasida “ho‘kiz” obrazi real predmet sifatida emas, balki kuchning stereotipik etaloni sifatida namoyon bo‘ladi. Frazeologik qiyoslashlar til tizimida yuqori darajada standartlashganligi sababli ular lug‘at birliklari sifatida qayd etiladi. Shu bilan birga, ularning emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorligi ayrim hollarda susayishi mumkin. Masalan, *simple comme bonjour* yoki *doux comme un mouton* kabi birliklarda obrazlilik darajasi kamaygan bo‘lsa-da, intensifikatsion ma‘no saqlanib qoladi [5, 143].

Fransuz adabiyotida frazeologik qiyoslashlar obraz yaratishning samarali vositasi sifatida faol qo‘llanadi. Bunday birliklar personajning psixologik holati, voqeaning emotsional fonini ifodalashda muhim stilistik funktsiya bajaradi.

Masalan, Gaston Leroux asaridagi quyidagi jumlag e‘tibor qaratish mumkin:

De telle sorte, conclut Boris, que si le général mourait demain, elle serait plus pauvre que Job.

Mazkur misolda *pauvre comme Job* modeli “nihoyatda kambag‘al” ma‘nosini anglatadi. Bu yerda “Job” komponenti konkret shaxs sifatida emas, balki mutlaq qashshoqlikning semantik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi [6, 52].

Shuningdek, individual-mualliflik qiyoslashlari ham zamonaviy fransuz badiiy matnida muhim o‘rin tutadi. Antuan de Sent-Ekzyuperining quyidagi misolida muallif obrazli intensifikatsiyadan foydalanadi:

La nuit lui apparut vide comme un théâtre sans acteurs.

Mazkur konstruksiyada “aktyorlarsiz teatr” obrazi bo‘shliq va sukunatning kuchli emotsional tasvirini yaratadi. Bunday qiyoslashlar an‘anaviy frazeologik birliklardan farqli ravishda muallifning individual uslubiga xos bo‘ladi va kuchli ekspressivlikni yuzaga keltiradi [7, 89].

Jean-Pierre Chabrol ijodida ham intensiv obrazlilik kuzatiladi:

Chargé comme la bonne abeille.

Bu yerda “asalari” obrazi mehnatsevarlik va yuklanganlikning intensiv timsoli sifatida qo‘llangan. Demak, individual-mualliflik qiyoslashlari kitobxon tasavvurida yorqin assotsiativ manzara hosil qiladi.

Fransuz tilida sifat intensivligini ifodalashning eng qadimiy va sodda usullaridan biri reduplikatsiya, ya’ni leksik takroridir. Reduplikatsiya ko‘plab tillarda universallikka ega bo‘lgan grammatik hodisa hisoblanadi [8, 211]. J. Damourette va E. Pichon reduplikatsiya hodisasi fransuz tiliga xos bo‘lmay, boshqa tillarda ham uchrashini ta’kidlaydi: “*Ce tour n’est pas spécial au français, on le rencontre dans différentes langues étrangères*” [9, 324].

Fransuz tilida leksik takror quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

joli, joli;
grand, grand;
fin, fin;
très, très beau;
trop, trop mince;
fine-fine-fine.


Takrorlash natijasida sifatning semantik og‘irligi kuchayadi va ekspressivlik ortadi. Reduplikatsiya nafaqat grammatik, balki pragmatik vazifani ham bajaradi. chunki nutq jarayonida so‘zlovchi aynan takrorlash orqali tinglovchining diqqatini ma’lum belgining yuqori darajasiga qaratadi [10, 167]. Leksik takrorning asosiy funksiyalaridan biri emotsional ta’sirchanlikni kuchaytirishdir. Ayniqsa, og‘zaki nutqda reduplikatsiya subyektiv baholash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, *belle-belle* shakli oddiy “go‘zal” ma’nosidan ko‘ra kuchliroq estetik bahoni anglatadi.

Fransuz tilida sifat intensivligini ifodalashda frazeologik qiyoslashlar va reduplikatsiya muhim lingvistik vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. *Sifat + comme + ot* modeli asosida shakllangan frazeologik birliklarda qiyoslash etaloni semantik transformatsiyaga uchrab, intensifikator vazifasini bajaradi. Natijada mazkur konstruksiyalar sifatning yuqori darajasini ifodalovchi barqaror birliklarga aylanadi. Shuningdek, reduplikatsiya fransuz tilining qadimiy grammatik mexanizmlaridan biri sifatida sifat intensivligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Leksik takror semantik urg‘uni kuchaytiradi, emotsional-ekspressiv ta’sirni oshiradi hamda nutqning stilistik boyligini ta’minlaydi.

Tahlil va natijalar.

Jadval-1.

Fransuz tilida sifat intensivligini ifodalovchi frazeologik va reduplikativ birliklarning tadqiqot materiallari manbalari hamda sifat intensivligini ifodalovchi vositalarning statistik taqsimoti.



Yuqorida keltirilgan diagrammalar tadqiqot materiallari manbalari hamda fransuz tilida sifat intensivligini ifodalovchi vositalarning statistik taqsimotini aks ettiradi. Natijalar tahliliga ko‘ra, asosiy materiallar badiiy adabiyotlardan olingan bo‘lib, bu frazeologik intensivlikning ayniqsa badiiy diskursda faol qo‘llanilishini ko‘rsatadi. Intensifikatsiya vositalari orasida frazeologik qiyoslashlar 68 % ko‘rsatkich bilan yetakchi o‘rinni egalladi va sifatning emotsional-ekspressiv darajasini ifodalashning eng mahsuldor vositasi sifatida namoyon bo‘ldi. Leksik takrorlarning 21 % ulushga ega ekanligi esa reduplikatsiyaning ham fransuz tilidagi intensifikatsiya tizimida muhim lingvistik funksiyani bajarishini tasdiqlaydi.

Xulosa. Frazeologik va reduplikativ konstruksiyalarni o‘rganish fransuz tilining semantik tizimi, stilistik imkoniyatlari hamda til birliklarining funksional transformatsiyasini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu birliklar tilning nafaqat nominativ funksiyasini, balki uning ekspressiv va pragmatik imkoniyatlarini ham yaqqol namoyon etadi. Xususan, frazeologik qiyoslashlar orqali sifat intensivligining obrazli ifodalanishi tilning metaforik tafakkur bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Reduplikatsiya esa semantik kuchaytirishning eng qadimiy va universal vositalaridan biri sifatida nutqning emotsional fonini oshirishga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur konstruksiyalar til tizimida barqaror shakllangan bo‘lib, ular semantik jihatdan qotib qolgan birliklar sifatida emas, balki dinamik va funksional transformatsiyaga uchraydigan til hodisalari sifatida talqin qilinishi lozim. Shu bilan birga, ular milliy-madaniy tafakkur, obrazlar tizimi va lingvokulturologik qadriyatlarni ham o‘zida aks ettiradi. Natijada frazeologik va reduplikativ birliklar fransuz tilining stilistik boyligini oshiruvchi, nutqning ta’sirchanligi va ifodaviyligini kuchaytiruvchi muhim lingvistik vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa ularni zamonaviy tilshunoslikda alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish zarurligini asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bally Ch. *Traité de stylistique française*. – Paris : Klincksieck, 1951. – 312 p.
2. Rey A. *Dictionnaire des expressions et locutions*. – Paris : Robert, 1993. – 892 p.
3. Guiraud P. *La stylistique*. – Paris : PUF, 1970. – 256 p.
4. Vinogradov V.V. Основные типы фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. – Москва : Наука, 1977. – С. 65–89.
5. Kunin A.V. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва : Высшая школа, 1986. – 336 с.
6. Leroux G. *Rouletabille chez le tzar*. – Paris : Livre de Poche, 1965. – 287 p.
7. Saint-Exupéry A. de. *Œuvres complètes*. – Paris : Gallimard, 1994. – 1248 p.
8. Jespersen O. *Language: Its Nature, Development and Origin*. – London : Allen & Unwin, 1922. – 448 p.
9. Damourette J., Pichon E. *Des mots à la pensée*. – Paris : Bibliothèque du français moderne, 1936. – 540 p.
10. Grevisse M. *Le Bon Usage*. – Bruxelles : De Boeck, 2008. – 1760 p.
11. Normatov A.A. Reduplikatsiya–fransuz tilida kuchaytirishning grammatik usuli sifatida // “Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta’lim” ilmiy jurnali – Samarqand, 2024. - №1 (90). – B.110-114.
12. Норматов А. А. Фразеологические единицы, выражающие интенсивность прилагательных в современном французском языке // Interpretation and Researches - № 2(24). С.101-106.